

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHILARNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda mamlakatda faol investitsiya va tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

2017 — 2019-yillarda iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,1 barobarga, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga 2,8 barobarga ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiyalar ulushi 2016-yildagi 21 foizdan 2019-yil yakuniga ko'ra 38 foizdan ko'proqqa o'sdi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi hajmi 1,7 barobarga oshdi.

Investitsiyalar va tashqi savdodagi yuqori faollik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining 1,24 barobarga, qurilishning 1,44 barobarga o'sishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,1 foizdan 33,2 foizgacha o'sdi.

Shu bilan birga, koronavirus global pandemiyasi kooperatsiya aloqalarining buzilishi, mahsulotga talabning va sotuv bozorlarining qisqarishi oqibatida iqtisodiyotning qator tarmoq va sohalaridagi korxonalarining ishlab chiqarish faolligiga cheklovchi ta'sir o'tkazishda davom etmoqda.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari va nomenklaturasini kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani chuqurlashtirish va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasining quyidagi taklifiga rozilik berilsin:

a) 2020-yil 1-noyabrdan:

*Oldingi tahrirga qarang.*

ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar (keyingi o'rinnarda — korporativ buyurtmachilar) uchun shunday tartib o'rnatiladiki, unga ko'ra umumiyligi qiymati bir shartnomaga bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 50 ming baravaridan yuqori bo'lgan import tovarlari (ishlar, xizmatlar) xaridlarining maqsadga muvofiqligi har chorakda ro'yxati tasdiqlangan holda kuzatuv kengashlari (ta'sischilarining umumiyligi yig'ilishi) tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi;

(1-band "a" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 07/20/4938/1680-soni)

xorijda ishlab chiqarilgan alohida tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) davlat xaridlaridagi ishtirokini vaqtinchalik taqiqlash va chegaralash mexanizmi kiritiladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar bo'yicha tender (tanlov) ishtirokchilari takliflarini baholashda xalqaro tajribaga muvofiq mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarining DDP (O'zbekiston) narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya beriladi;

(1-band "a" kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagagi PQ-5011-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2021-y., 07/21/5011/0174-soni)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari, tumanlar va shaharlar budgetlari hisobidan amalga oshiriladigan va umumiy qiymati bir shartnama bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 2 500 baravaridan ortiq bo'lgan davlat xaridlari bo'yicha tender komissiyalari tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchilari majburiy tartibda kiritiladi;

(1-band "a" kichik bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y, 07/20/4938/1680-son)

b) 2021-yil 1-yanvardan strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishning alohida tartiblari bekor qilinadi.

Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-yanvarga qadar strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalarda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga va korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillariga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarini o'tkazishning ichki tartiblari joriy etilishini ta'minlasin.

## 2. Belgilansinki:

a) Davlat xaridlariagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan quyidagi asosda shakllantiriladi va tasdiqlanadi:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilgan qo'shma takliflari;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining elektron kooperatsiya portalida (keyingi o'rnlarda — cooperation.uz portalı) joylashtiriladigan hamda tegishli sertifikatlarga ega bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va ularning ishlab chiqaruvchilari haqidagi ma'lumotlar;

### b) ushbu qaror 1-bandining "a" kichik bandi:

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishning boshqa tartibi o'rnatilgan alohida qarorlari bo'yicha tuziladigan;

mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash maqsadida amalga oshiriladigan, shuningdek, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan xarid jarayonlari va shartnomalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasi 2020-yil 1-oktabrga qadar respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlarni batafsil o'rganish asosida Davlat xaridlariagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro'yxatini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kirtsin.

## 4. 2020-yil 1-oktabrdan shunday tartib kiritilsinki, unga muvofiq:

budget va korporativ buyurtmachilar rahbarlari xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini shakllantirishda ularni cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o'rganadi;

korporativ buyurtmachi — korxonalar rahbarlari mahalliy ishlab chiqaruvchilardan (texnik ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmlari va muddatlari bo'yicha) xarid qilish imkon bo'lмагan taqdirda, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning korporativ xaridlarini import orqali amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini kuzatuv kengashlariga (ta'sischilarning umumiy yig'ilishlariga) asoslab beradi;

### *Oldingi tahrirga qarang.*

korxonalarining kuzatuv kengashlaridagi (ta'sischilarning umumiy yig'ilishlaridagi) davlat vakillari boshqaruv organlari majlislarida umumiy qiymati bir shartnama bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 50 ming baravaridan yuqori bo'lgan import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarining

asoslanganligiga oid masalalarning ko'rilishini ta'minlaydi, bunda ishlab chiqarish zaxiralaridagi import tovarlarining omborlardagi qolgan qismini ularning korxona faoliyatiga jalb qilinishi bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llagan holda tahlil qiladi;

(4-bandning to'rtinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 07/20/4938/1680-son)

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi har chorakda davlat vakillari tomonidan kuzatuv kengashlarida (ta'sischilarning umumiyligining yig'ilishlarida) ushbu qaror talablariga rioya etilishini tahlil qilib, natijalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

udget mablag'larini taqsimlovchi vazirlik va idoralar idoraviy mansub tashkilotlarda import xaridlarini optimallashtirish, shuningdek, davlat xaridlari doirasida ajratilgan mablag'larning samarali va maqsadli ishlatalishi ustidan tizimli nazoratni yo'lga qo'yish choralari ko'rilishini ta'minlaydi;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi har oyda import bo'yicha olib kelinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmi va nomenklaturasini tahlil qiladi, shuningdek, tarmoqlar, korxonalar va hududlar rahbarlari tomonidan importni optimallashtirish bo'yicha ko'riliyotgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholab, ularni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi har chorakda sanoat tarmoqlari va hududlar kesimida ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishga oid takliflarni ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

Markaziy bank korporativ buyurtmachilarning ofshor yurisdiksiya hududlarida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar hisobiga amalga oshirgan valyuta operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar tijorat banklari tomonidan har oyda Hisob palatasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

Moliya vazirligi budget tashkilotlarining kelgusi davr uchun xarajatlar smetasini kelishishda xarajatlar shakllanishini, shu jumladan cooperation.uz portali ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda tovarlar qiymatini aniqlash orqali nazorat qiladi;

Hisob palatasi har chorakda import xaridlarini amalga oshirishda davlat budgeti, budgetdan tashqari jamg'armalar hamda korporativ buyurtmachilarning jalb qilingan va o'z mablag'lari maqsadli va samarali sarflanishini tahlil qiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchilari respublikaga import qilinayotgan tovarlar hajmi va nomenklaturasi haqidagi statistik ma'lumotlar asosida hududlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, tegishli hududlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni cooperation.uz portalida to'liq joylashtirilishini ta'minlaydi;

Vazirlar Mahkamasi har oy o'z komplekslari kesimida xaridlarni optimallashtirish, qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari — davlat buyurtmachilari rahbarlari va korxonalarining boshqaruv organlaridagi davlat vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini ko'rib chiqadi.

##### 5. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

Oliy Majlisga "davlat xaridlarining strategik subyekti" tushunchasini bekor qilish, xorijda ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlaridagi ishtirokini taqiqlash va chegaralash, davlat xaridlari usullarini kengaytirish va ularning shaffofligini, shu jumladan tender (tanlov) xaridlari natijalarini ochiq manbalarda e'lon qilish yo'li bilan oshirish, shuningdek, davlat xaridlarida qonunchilik talablarining buzilishiga yo'l qo'ygan davlat buyurtmachilari va kuzatuv kengashlarining javobgarligini oshirish bo'yicha me'yorlarni nazarda tutuvchi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun loyihasini (yangi tahrirda) kirtsin;

Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro'yxatini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin;